

# TABIATDAN FOYDALANISHNING ILMIY EKOLOGIK-GEOGRAFIK ASOSLARI

**Ahmadjonov Abrorjon Ikromjon o‘g‘li**

O‘zR FA Seysmologiya instituti

kichik ilmiy xodimi

E-mail: [cartographer92@mail.ru](mailto:cartographer92@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tabiat va jamiyat o‘rtasida kechayotgan chigal munosabatlar va buning oqibatida yuzga kelayotgan ayrim ekologik muammolar tavsifi keltirilib, tabiatdan foydalanishning ekologik-geografik asoslari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** biosfera, atrof-muhit, tabiiy resurs, tabiatdan foydalanish, ekologik-geografik asos, inson omili, ekologik muammolar.

## SCIENTIFIC ECOLOGICAL-GEOGRAPHICAL BASIS OF NATURE USE

**Akhmadjonov Abrorjon Ikromjon ogli**

**Abstract:** This article describes the complex relationship between nature and society and some of the resulting environmental problems, and discusses the ecological and geographical basis of the use of nature.

**Key words:** biosphere, environment, natural resource, nature use, ecological-geographical basis, human factor, ecological problems.

Ma’lumki, Yer yuzida odamzot paydo bo‘libtiki yashash uchun zaruriy ehtiyojlarini va xo‘jalik faoliyatini doimiy ravishda tabiat boyliklari hisobiga ta’mirlab kelgan. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida tabiatdan foydalanish va unga bo‘lgan antropogen bosim ko‘lami ham turlicha bo‘lgan. Tarixan inson omili tufayli tabiiy geografik muhitda ro‘y bergan o‘zgarishlar dastalab bir maromda kechgan bo‘lsa keyinchalik, dunyo aholisi sonining muttasil oritib borishi bilan tabiat tobora antropogenlashib, unga insonning ta’sir yuki kuchayib borganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, XX-asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab tabiiy resurslariga bo‘lgan talab keskin ortdi va mazkur talabning ilm-fan yutuqlari tufayli zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan qurollangan insoniyat tomonidan qondirilishi esa ekologik muammolar ko‘lamini yanada kengayishiga zamin yaratdi [2, 140-b.].

Bugungi kunda tobora dolzarblashib borayotgan ekologik vaziyat shundan dalolat beradiki, endilikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ekologik omilni e’tiborga olish davr talabi hisoblanadi. Bu avvalo atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindisiz ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ijtimoiy-iqtisodiyotga yo’naltirilgan ekologik siyosatni amalga oshirishdan iborat. Mazkur jarayon yetarli darajada murakkab, serqirra va ko‘p sarf-xarajatni talab etadi. Biroq, iqtisodiyotda ularni joriy etishga bosqichma-bosqich o‘tilmas ekan, ekologik barqarorlikka erishish imkonsizligicha qoladi. Shu jihatdan qaraganda tabiatdan foydalanishda ilmiy ekologik va geografik asoslar haqida chuqur bilim va ko‘nikma hosil qilish barqaror iqtisodiy rivojlanishga o‘tishda muhim ahamiyat kasb etadi [4, 10-b.].

Hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bu tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini optimallashtirish ekanligi keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, ular o‘rtasida modda va enyergiya almashuvining muttasil ortib borishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mazkur hodisa xususan, tabiiy energetik balansning inson xo‘jalik faoliyati natijasida o‘zgarishi, xo‘jalik muomalasiga tabiiy resurslarning ko‘plab kiritilishi, sanoat hamda kommunal-maishiy chiqindilar hajmini keskin ortishi va ularni tabiatga qaytarilishi bosqichlarida yanada keskin tus olmoqda. Tabiat boyliklaridan tezkorlik bilan foydalanish jarayonida ularni qayta tiklanish qobiliyati va chiqarib tashlanayotgan chiqindilardan tozalanish xususiyatlari

susayib boradi, bu orqali atrof-muhitda tirik organizm, shu jumladan inson uchun zararli bo'lgan zaharli moddalarning to'planib borishi kuzatiladi [5, 29-b.]. Bu esa o'z-o'zidan ekologik vaziyatni keskinlashuviga va izdan chiqishiga olib keladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab jami muammolar haligacha nazariy jihatdan to'liq o'rganilmagan. Bir qarashda bunday xulosa asossizdek tuyuladi, chunki ko'plab tabiiy fanlar ko'p vaqtadan beri atrof-muhit muammolari bilan shug'ullanib keladi lekin, shunga qaramasdan, ko'pgina nomaqbul tabiiy jarayonlarning ta'siri va uning sabablari, antropogen xarakterdagi fizik va kimyoviy omillarning ekotizimlarga salbiy ta'sirlarining mohiyatlari xanuz chuqur tadqiq etilmagan [6, 32-b.]. Tog' kon sanoati, qurilish va boshqa loyihali ishlanmalar, qurg'oqchil yerlarni o'zlashtirilishi, qishloq xo'jaligida pestitsidlar va kimyoviy o'g'itlardan keng foydalanish, ba'zi ekinlarning yakkahokimligi, *nomatlub* tabiiy hodisalar bilan kurashish uchun keng miqiyosdagi meliorativ tadbirlarning yo'qligi jamiyat uchun kutilmagan jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Tabiiy resurslardan ekstensiv foydalanishni intensifikasiyalash va bunda uzoq muddatli texnik-iqtisodiy samarani hisobga olmaslik ko'pincha tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabatlarini murakkablashtiradi, buning iqtisodiy oqibatlari juda katta raqamlar bilan baholanadi. Bunday xatoliklar ko'pincha atrof tabiiy muhitning antropogen ta'sirga nisbatan «aks ta'sir»ini aniq prognoz qilishni qiyinligi, insonning tabiat resurslaridan foydalanishdagi faoliyatini yo'l qo'yilgan darajasini ilmiy jihatdan asoslangan baholash usullarining yo'qligi, tabiatni muhofaza qilish vazifalari bilan uning resurslaridan tezkorlik bilan foydalanish orasida kelib chiqadigan ixtiloflarning ilmiy mohiyatlari haqida tushunchalarning chegaralanganligi bilan bog'liq [5, 36-b.].

Insoniyatning tabiat bilan aloqa vositasida uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatining juda ham yaxshi ifodalanadi va ma'lum qonuniyatlar orqali boshqariladi. Insonning xo'jalik faoliyati jamiyatda tabiat qonunlari bilan qanchalik mos kelsa, bu faoliyat jamiyat uchun ham ijobjiy hol hisoblanadi. Va, aksincha, tabiat qonunlari bilan teskari proporsionallik hosil qilsa turli xil tabiiy jarayonlarning rivojlanishi sababli jamiyat uchun tashvishlanarli holatlar vujudga keladi. V.A. Nikolayevning [3, 16-b.] tasdiqlashicha, barcha tabiat (jamiyatni ham qo'shib hisoblasa) bir butun tizimdan iborat, bunda ayrim hodisalar bir-biri bilan organik bog'liq va bir butunlikni tashkil qiladi. Tabiat bir butunlikdan iborat, o'z tarkibiga hisobsiz aniq shakllarni qo'shadi, ular bir-biri bilan o'zaro munosabatda mavjud bo'ladi. Tabiatning tub qonunlaridan biri mavjud moddiy tizim va uni o'rab turgan tashqi sharoitning birlik qonuni hisoblanadi. Jamiyatga nisbatan qo'llaganda - bu uning geografik muhit bilan birligidir. Biz yashab turgan borliq, makon aniqrog'i tabiat va jamiyat modda, energiya, axborot almashinuvi tufayli bir butun hamda o'ta murakkab tizimdir. Tabiatda biror hodisaning o'zgarishi jarayonida u bilan bog'liq bo'lgan boshqa hodisalarning ham huddi shunday tartibda o'zgarishini talab qiladi. Bunda ular orasida o'zaro munosabat kuchli ifodalansa, u holda bir mahalliy uchastkaga qo'shni bo'lgan hududlardagi hodisalarga ham ta'sir etadi. I.Q.Nazarov [2, 24-b.] ta'biri bilan aytganda tabiatda tinim yo'q, u doim harakatda va turli o'zgarishda bo'ladi. Aynan shuning uchun ham olimlar yangi hodisalarga katta e'tibor berib turishlari maqsadga muvofiq, chunki ular tabiiy muhit va qo'shni komplekslarni vujudga kelish, shakllanish va rivojlanish jarayonlarida kuchli o'zgartirishlari mumkin.

Tabiiy muhitni tezkorlik bilan o'zgartirishi shartlaridan biri landshaft (geotizimlar) xilma-xilligi qonunidir. Jamiyat taraqqiyoti bilan tabiat xilma-xilligi o'rtasida ma'lum bog'likliq mavjudligi ko'pchilik mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Aniqlanishicha, agarda hududning tabiiy sharoit va resurslari xilma-xil bo'lsa, jamiyat rivojlanishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. Va aksincha, hududning tabiiy sharoit va resurslari bir xil bo'lsa, unda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo'lmaydi. Bu kontekstda moddiy tizimlar va uni o'rab turgan muhit qonuni va landshaftlar xilma-xilligi qonuni bir vaqtning o'zida ta'sir etganligi sababli samarali bo'ladi. Landshaft strukturasi murakkab bo'lgan hududlarda, tabiiy geografik sharoitlar juda xilma-xilligi tufayli muhitni intensiv ravishda o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham ko'p hollarda o'zaro harakatda bo'lgan jarayonlarning albatta, mos kelish qonuniga muvofiq katta hududlarda tabiiy (ekologik) sharoitlarning o'zgarishi kuzatiladi [6, 18-b.].

Ta'kidlash joizki, o'tgan XX-asrning o'rtalariga qadar jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazkur davrdan keyingi yillarga nisbatan ancha muvozanatli kechgan deyish mumkin, chunki usha vaqtarda tabiatdan foydalanish ehtiyojga yarasha bo'lgan. Bundan keyingi yillarda tabiatdan foydalanishda ekstensiv yo'naliшning saqlanishi, jamiyat va tabiyat o'rtasidagi munosabatlardagi muvozanatining buzilishiga olib

keldi. Chunki, insonning atrof-muhitga yirik masshtabli ta'siri tufayli tabiat bilan jamiyat munosabatlarda nafaqat ijobjiy siljishlar, shuningdek inson uchun salbiy oqibatlar ham kelib chiqadi, biosferaning o'zgarishi, ekologik muvozanat, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy boyliklarning qashshoqlanishi sodir bo'lishi kuchaya boradi.

Ma'lumki, tabiatdan ekstensiv foydalanishda, joylarda ekologik muvozanat ko'pincha tabiiy yo'l bilan qayta tiklangan, tabiatning o'z-o'zini tozalash qobiliyati ham yuqori bo'lgan, bioresurslarning qayta tiklanishi ham yuz bergan, chunki geografik muhitga bo'lgan ishlab chiqarish bosimi katta bo'limgan [8, 76-b.]. Tabiatdan foydalanish darajasi juda ham ortgan o'tgan XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab tabiiy muhitning o'z-o'zini tozalash va boshqarish xususiyatlari susaya bordi. Bu vaziyatda tabiat o'zining resurslarini va ekologik muvozanatni tiklash qobiliyatlarini ham yuqotdi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, resurslardan tezkorlik bilan foydalanish jarayonida tabiat o'zining zaruriy xususiyatlarini yo'qota boradi. Mazkur vaziyatda tabiatning aks ta'siri miqiyos jihatdan kuchayadi va salbiy oqibatlar yuzaga kela boshlaydi. Bu ekologik tanglik va halokat sifatida kuzatiladi, ularning ulkan iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari barchaga ayon.

Tabiiy resurslardan foydalanishning geografik asoslari avvaldan ma'lum, fanda u turli mutaxassis-olimlar tomonidan turlicha talqin qilinsada, umumiy yo'naliш va asoslanish negizlari bosqichma-bosqich yaratilib borildi [7, 117-b]. Ularning ba'zilari amalda qo'llanilib kelmoqda va buning natijasida turli salbiy hodisalarining oldini olishga, joylarda resurslardan foydalanishda mavjud fan imkoniyatlaridan to'liq foydalaniyabti, deb xulosa chiqarish qiyin, chunki fanning bunday imkoniyatlari nihoyatda katta, gap ulardan amaliy jihatdan barcha hududlarda to'liq foydalanishga o'tishda qolgan.

### **Adabiyotlar ro'uxati**

1. Герасимов И.П. Экологические проблемы в прошлой, настоящей и будущей географии мира. – М.: «Наука», 1985 г. -248 с.
2. Назаров И.К. География фанининг асосий муаммолари - Тошкент: «Мухаррир», 2003 й. 211 б.
3. Николаев В.А. Геоэкологические проблемы регионального ландшафтов- едения.– М.: «Изд. МГУ», 1979 г. -160 с.
4. Рафиков А.А. Геоэкология асослари. – Тошкент: «ЎзМУ нашриёти», 2000 й. -112 б.
5. Рафиков А.А. Географик прогнозлаштириш асослари. Тошкент. «Университет», 2003 й. -268 б.
6. Рафиков В.А. Конструктив география. – Тошкент: «ЕКОРАК РВ», 2016 й. -160 б.
7. Рафиков В.А. Табиатдан фойдаланишнинг экологиг-географик асослари // Сейсмология муаммолари хабарномаси – Тошкент, 2007 й. №4. 240 б.
9. Zokirov SH.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Turon zamin ziyo» nashriyoti. 2016 y. -277 b.